



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 07 | pp. 97-116 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA AKTIVLAR VA PASSIVLARNI BOSHQARISH ASOSIDA LIKVIDLILIKNI TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH



Yangiboev Rustam Berdiyarovich
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston tijorat banklarida aktivlar va passivlarni boshqarish asosida likvidlilikni ta'minlash holati baholanib, uni takomillashtirish yo'nalishlari ishlab chiqilgan. Tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zmilliybank va «Turonbank»ning 2020-2025 yillarga oid ma'lumotlari asosida amalga oshirilgan. Tahlilda dinamik, tarkibiy, koeffitsient, taqqoslama, korrelyatsion va regression usullar qo'llanilgan. Tadqiqotda operatsion likvidlilik, tarkibiy moliyalashtirish va valyuta riskini eng zaif ko'rsatkich tamoyili asosida birlashtiruvchi likvidlilik barqarorligi matritsasi taklif etilgan. Shuningdek, kredit-depozit nisbati bo'yicha tabaqalashtirilgan limitlar, uzoq muddatli resurslarni kengaytirish, valyuta tafovutini cheklash, depozitlarni diversifikatsiyalash, stress-testlar, favqulodda moliyalashtirish va ichki transfert narxlash tizimini takomillashtirish yo'nalishlari asoslangan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, bank likvidlili, aktivlar va passivlarni boshqarish, likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti, sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti, kredit-depozit nisbati, barqaror moliyalashtirish, yuqori likvidli aktivlar, valyuta likvidlili, GAP-tahlil, stress-test, likvidlilik barqarorligi matritsasi.

Abstract. This article assesses liquidity management based on asset–liability management in Uzbekistan's commercial banks and develops directions for its improvement. The study uses data from the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, the National Bank of Uzbekistan, and Turonbank for 2020-2025. Dynamic, structural, ratio, comparative, correlation, and regression analysis methods were applied. The study proposes a Liquidity Stability Matrix that integrates operational liquidity, structural funding, and foreign exchange risk based on the weakest-indicator principle. It also substantiates measures for establishing differentiated loan-to-deposit ratio limits, expanding long-term funding sources, limiting currency mismatches, diversifying the deposit base, conducting stress tests, improving contingency funding, and developing the internal funds transfer pricing system.

Keywords: commercial banks, bank liquidity, asset–liability management, liquidity coverage ratio, net stable funding ratio, loan-to-deposit ratio, stable funding, high-quality liquid assets, foreign exchange liquidity, GAP analysis, stress testing, Liquidity Stability Matrix.

Аннотация. В статье оценено состояние обеспечения ликвидности коммерческих банков Узбекистана на основе управления активами и пассивами и разработаны направления его совершенствования. Исследование проведено на основе данных Центрального банка Республики Узбекистан, Национального банка Узбекистана и АКБ «Туронбанк» за 2020-2025 годы. В анализе применены динамический, структурный,

коэффициентный, сравнительный, корреляционный и регрессионный методы. Предложена матрица устойчивости ликвидности, объединяющая операционную ликвидность, структурное фондирование и валютный риск на основе принципа наиболее слабого показателя. Также обоснованы направления установления дифференцированных лимитов соотношения кредитов и депозитов, расширения долгосрочных источников фондирования, ограничения валютных дисбалансов, диверсификации депозитной базы, проведения стресс-тестирования, совершенствования экстренного финансирования и системы внутреннего трансфертного ценообразования.

Ключевые слова: коммерческие банки, банковская ликвидность, управление активами и пассивами, коэффициент покрытия ликвидности, коэффициент чистого стабильного фондирования, соотношение кредитов и депозитов, стабильное фондирование, высоколиквидные активы, валютная ликвидность, GAP-анализ, стресс-тестирование, матрица устойчивости ликвидности.

Kirish

Tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritishi ularning o'z majburiyatlarini belgilangan muddatlarda va to'liq bajarish qobiliyatiga bevosita bog'liq. Bank aktivlarining asosiy qismi daromad keltiruvchi, ammo nisbatan past likvidli kreditlar va investitsiyalardan, passivlarining sezilarli qismi esa mijozlar talabi asosida qaytarilishi mumkin bo'lgan depozitlardan tashkil topadi. Aktivlar va passivlarning muddati, valyutasi, qiymati hamda pul oqimlari o'rtasidagi nomuvofiqlik bankda likvidlilik yetishmasligi yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois bank likvidliligini ta'minlash faqat yuqori likvidli aktivlar zaxirasini shakllantirish bilan cheklanmasdan, aktivlar va passivlarni o'zaro muvofiqlashtirishga asoslangan kompleks boshqaruvni talab qiladi.

Bank likvidliligini boshqarishning iqtisodiy murakkabligi likvidlilik va daromadlilik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Bank aktivlarining katta qismini naqd pul, Markaziy bankdagi mablag'lar va qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar shaklida saqlash uning majburiyatlarni bajarish qobiliyatini oshiradi, biroq daromad keltiruvchi aktivlar ulushini kamaytiradi. Aksincha, resurslarning asosiy qismini uzoq muddatli kreditlarga yo'naltirish bank daromadlarini oshirishi mumkin, ammo depozitlar chiqib ketishi yoki moliyalashtirish manbalari qisqarishi sharoitida likvidlilik riskini kuchaytiradi. Demak, aktivlar va passivlarni boshqarishda likvidlilik, daromadlilik va risk o'rtasidagi maqbul mutanosiblikni ta'minlash bank moliyaviy boshqaruvining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

2007-2009 yillardagi global moliyaviy inqiroz bank kapitalining yetarliligi likvidlilik muammolarini to'liq bartaraf eta olmasligini ko'rsatdi. Moliyaviy jihatdan to'lovga qobiliyatli bo'lgan ayrim banklar qisqa muddatli moliyalashtirish manbalarining keskin qisqarishi va yuqori likvidli aktivlar yetishmasligi tufayli jiddiy qiyinchiliklarga duch keldi. Ushbu tajriba asosida Bazel qo'mitasi tomonidan likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti (LCR) va sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti (NSFR) joriy etildi. LCR bankning 30 kunlik stress davrida kutilayotgan sof pul chiqimlarini yuqori sifatli likvid aktivlar bilan qoplash imkoniyatini, NSFR esa aktivlarni bir yil va undan uzoq davrda barqaror moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlash darajasini ifodalaydi.

Shu jihatdan mazkur koeffitsientlar qisqa va uzoq muddatli likvidlilikni o'zaro bog'liq holda baholashga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Tijorat banklarida likvidlilikni ta'minlash masalasi iqtisodiy adabiyotlarda banklarning moliyaviy barqarorligi, aktivlar va passivlarni boshqarish, resurslar muddatlari o'rtasidagi mutanosiblik hamda kreditlash imkoniyatlarini belgilab beruvchi muhim omil sifatida tadqiq etilgan. Bank likvidliligining iqtisodiy mohiyati uning joriy va istiqboldagi majburiyatlarini o'z vaqtida, ortiqcha moliyaviy yo'qotishlarsiz bajara olish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Shu sababli likvidlilikni boshqarish faqat yuqori likvidli aktivlarni ko'paytirish bilan cheklanmaydi, balki aktivlar va passivlarning muddati, qiymati, valyuta tarkibi hamda pul oqimlarini o'zaro muvofiqlashtirishni talab qiladi.

Bank likvidliligining nazariy asoslari D. Diamond va P. Dybvig tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy vositachilik modelida keng yoritilgan. Mualliflar banklarning qisqa muddatli va talab qilib olinguncha depozitlarni nisbatan uzoq muddatli, past likvidli aktivlarga joylashtirishi iqtisodiyotda likvidlilik yaratishini, biroq ayni vaqtda omonatchilar mablag'larini ommaviy ravishda qaytarib olish riskini keltirib chiqarishini asoslab berganlar [1]. Mazkur yondashuv bank likvidligi muammosining asosida aktivlar va passivlar muddatlari o'rtasidagi nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatadi.

A. Berger va C. Bouwman banklar likvidlilikni nafaqat aktiv operatsiyalari, balki balansdan tashqari operatsiyalar va passivlar tarkibi orqali ham yaratishini empirik jihatdan asoslaganlar [2]. Ularning yondashuviga ko'ra, bankning likvidlilik holatini faqat likvidli aktivlar hajmi yoki joriy likvidlilik koeffitsienti bilan baholash yetarli emas. Bunda depozitlar barqarorligi, kreditlar muddati, majburiyatlar va kapital darajasi ham birgalikda hisobga olinishi lozim. Ushbu xulosa aktivlar va passivlarni kompleks boshqarish konsepsiyasining nazariy ahamiyatini yanada oshiradi.

Jahon moliyaviy inqirozi davrida banklar likvidligi va kredit taklifi o'rtasidagi bog'liqlik M. Cornett, J. McNutt, P. Strahan va H. Tehranian tomonidan o'rganilgan. Tadqiqot natijalari balansda likvidligi past aktivlar va barqaror bo'lmagan qisqa muddatli moliyalashtirish manbalari ulushi yuqori bo'lgan banklar inqiroz davrida kreditlash hajmini boshqa banklarga nisbatan ko'proq qisqartirganini ko'rsatgan. Barqaror depozit bazasi va yetarli likvid aktivlar zaxirasiga ega banklarda esa kredit taklifining qisqarishi nisbatan past bo'lgan [3]. Demak, aktivlar va passivlar tarkibining sifati bankning nafaqat to'lov qobiliyatiga, balki iqtisodiyotni kreditlash imkoniyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

F. Vazquez va P. Federico 2001-2009 yillarda AQSh va Yevropa mamlakatlarida faoliyat yuritgan qariyb 11 mingta bank ma'lumotlarini tahlil qilib, moliyalashtirish manbalari barqarorligining pastligi va yuqori moliyaviy leveraj bank muvaffaqiyatsizligi ehtimolini oshirishini aniqlaganlar [4]. Mualliflarning xulosalariga ko'ra, ichki bozorga yo'naltirilgan banklar moliyalashtirish likvidligi riskiga, yirik xalqaro banklar esa yuqori leveraj bilan bog'liq risklarga ko'proq ta'sirchan bo'ladi. Bu natijalar bank likvidligini boshqarish strategiyasi bankning hajmi, biznes-modeli va resurs bazasi xususiyatlariga muvofiq shakllantirilishi lozimligini ko'rsatadi.

Jahon moliyaviy inqirozidan keyin Bazel qo'mitasi tomonidan banklarning qisqa va uzoq muddatli likvidligini tartibga solishga qaratilgan yangi me'yorlar joriy etildi.

Jumladan, likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti (LCR) bankning 30 kunlik stress sharoitida sof pul chiqimlarini qoplash uchun yetarli yuqori sifatli likvid aktivlarga ega bo'lishini nazarda tutsa, sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti (NSFR) aktivlar va majburiyatlarning bir yillik davrdagi tarkibiy muvofiqligini ta'minlashga xizmat qiladi [5; 6].

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham tijorat banklari likvidliligini ta'minlashning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Jumladan, A.Ya. Abdullaev tijorat banklari likvidliligini baholash metodologiyasini takomillashtirish, aktivlar va passivlarni muddati hamda hajmi bo'yicha muvofiqlashtirish, shuningdek, bank tizimi likvidliligini ssenariylar asosida stress-testdan o'tkazish masalalarini o'rgangan [7]. Muallifning yondashuvida likvidlilik riskini oldindan aniqlash uchun joriy ko'rsatkichlar bilan birga istiqboldagi pul oqimlarini ham baholash zarurligi ta'kidlangan.

B.T. Berdiyarov O'zbekiston tijorat banklarining likvidliligi va to'lov qobiliyatini ta'minlash masalalarini tadqiq etib, transaksion depozitlar ulushini maqbullashtirish, bir yildan ortiq muddatga jalb qilingan resurslar va regulativ kapital hajmini oshirish, taqsimlanmagan foydadan kapitallashuv manbai sifatida foydalanish hamda aktivlar va passivlar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqqan [8]. Ushbu takliflarda likvidlilikning passivlar sifati va bank kapitali bilan uzviy bog'liqligi alohida e'tirof etilgan.

M.M. Shokirova tijorat banklari likvidliligini boshqarishning ichki va tashqi usullarini qiyosiy o'rganib, ortiqcha likvidlilikning uzoq vaqt saqlanishi bank daromadliligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan [9]. Muallif aktiv va passiv operatsiyalarni muvofiqlashtirish, depozit bazasida muddatli resurslar ulushini oshirish, yuqori likvidli aktivlarning maqbul darajasini belgilash hamda REPO operatsiyalari kabi bozor instrumentlaridan foydalanishni taklif etadi. B.B. Izbosarov esa O'zbekistonda bank likvidliligini tartibga solish amaliyotini tahlil qilib, yuqori likvidli aktivlar ulushining haddan tashqari ko'payishi to'lov qobiliyatini mustahkamlasa-da, bank daromadliligini pasaytirishi, yuqori daromadli aktivlarning ortishi esa likvidlilik riskini kuchaytirishini ko'rsatgan [10].

Mavjud adabiyotlarni umumlashtirish likvidlilikni ta'minlashda uchta asosiy yondashuv shakllanganini ko'rsatadi. Birinchi yondashuv yuqori sifatli likvid aktivlar zaxirasini shakllantirishga, ikkinchi yondashuv barqaror va diversifikatsiyalangan moliyalashtirish manbalarini kengaytirishga, uchinchi yondashuv esa aktivlar va passivlarni muddat, valyuta, qiymat va pul oqimlari bo'yicha kompleks muvofiqlashtirishga asoslanadi. Ularning har biri alohida ahamiyatga ega bo'lsa-da, bank likvidliligini barqaror ta'minlash ushbu yondashuvlarning o'zaro integratsiyasini talab qiladi.

Mazkur tadqiqotning avvalgi ilmiy ishlardan farqli jihati O'zbekiston tijorat banklarida likvidlilikni ta'minlash masalasini aktivlar va passivlarni boshqarishning operatsion, tarkibiy va stress darajalari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik asosida baholashdan iborat. Bunda bank tizimi va alohida tijorat banklari ko'rsatkichlarini dinamik tahlil qilish, likvidlilik hamda daromadlilik o'rtasidagi muvozanatni aniqlash va milliy bank amaliyotiga mos takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqish nazarda tutiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Bank tizimiga oid ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulletenlari asosida shakllantirildi. Ularda bank tizimi va banklar guruhlariga bo'yicha aktivlar, kreditlar, depozitlar, kapital va likvidlik ko'rsatkichlari yagona uslubiyatda keltirilgan.

Statistik ma'lumotlar quyidagi yo'nalishlarda tizimlashtirildi:

aktivlar, kreditlar, depozitlar va kapital dinamikasi;

yuqori likvidli aktivlar hajmi va ularning jami aktivlardagi ulushi;

talab qilib olinguncha, jamg'arma va muddatli depozitlar tarkibi;

qisqa va uzoq muddatli kreditlar hajmi;

milliy va xorijiy valyutadagi kreditlar hamda depozitlar;

bank tizimi, davlat ulushi mavjud banklar va boshqa banklar ko'rsatkichlari;

likvidlikni qoplash me'yori koeffitsienti va sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti.

Tadqiqotda dinamik, tarkibiy, koeffitsient, taqqoslama, korrelyatsion va regression tahlil usullaridan foydalaniladi.

Dinamik tahlil orqali aktivlar, kreditlar, depozitlar, kapital va yuqori likvidli aktivlarning yillik hamda oylik o'zgarishlari baholanadi. Bankning qisqa muddatli likvidligi likvidlikni qoplash me'yori koeffitsienti (LCR) orqali baholanadi. Bazel III talablariga muvofiq likvidlikni qoplash me'yori koeffitsienti kamida 100 foizni tashkil etishi lozim. Bankning uzoq muddatli moliyalashtirish barqarorligi sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti (NSFR) orqali baholanadi. Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti ham kamida 100 foiz bo'lishi kerak.

Tahlil va natijalar

O'zbekiston tijorat banklarida likvidlikni ta'minlash holatini baholash uchun 2020-2025 yillarda bank tizimi aktivlari, kreditlari, depozitlari, kapitali va yuqori likvidli aktivlari dinamikasi tahlil qilindi. Shuningdek, likvidlikni qoplash me'yori koeffitsienti, sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti, kredit-depozit nisbati hamda depozit va kreditlarning muddat tarkibi o'rganildi.

1-jadval

O'zbekiston bank tizimining asosiy moliyaviy va likvidlik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Aktivlar, mlrd so'm	366 121,1	444 922,5	556 746,3	652 157,1	769 330,4	924 763,1
Kreditlar, mlrd so'm	276 974,8	326 385,6	390 048,9	471 405,5	533 121,2	604 002,2
Depozitlar, mlrd so'm	114 746,9	156 189,8	216 737,5	241 686,6	308 692,3	417 258,2
Yuqori likvidli aktivlar, mlrd so'm	50 475,7	75 992,2	104 472,9	96 909,5	133 228,9	189 081,7
Yuqori likvidli aktivlar ulushi, foiz	14,2	17,7	19,4	14,9	17,3	21,1
LCR, foiz	224,5	189,6	211,6	164,8	193,8	207,5
NSFR, foiz	109,9	115,4	115,6	111,8	115,3	119,9
Kredit-depozit nisbati, foiz	241,4	209,0	180,0	195,0	172,7	144,8

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulleteni ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

2020-2025 yillarda O'zbekiston bank tizimi aktivlari, kreditlari va depozitlari yuqori sur'atlarda o'sgan.

2020-2025 yillarda O'zbekiston bank tizimi aktivlari 366,1 trln so'mdan 924,8 trln so'mgacha yoki 152,6 foizga oshgan, ularning o'rtacha yillik o'sishi 20,4 foizni tashkil etgan. Kredit portfeli 277,0 trln so'mdan 604,0 trln so'mgacha, depozitlar esa 114,7 trln so'mdan 417,3 trln so'mgacha ko'paygan. Ularning o'rtacha yillik o'sishi mos ravishda 16,9 va 29,5 foizni tashkil etgan. Depozitlar o'sishining kreditlar o'sishidan 12,6 foiz bandga yuqoriligi ichki resurs bazasini kengaytirib, kredit-depozit nisbatini 241,4 foizdan 144,8 foizgacha pasaytirgan. Biroq uning 100 foizdan yuqoriligi kreditlarni moliyalashtirishda nodepozit resurslardan ham foydalanilayotganini ko'rsatadi.

Yuqori likvidli aktivlar 50,5 trln so'mdan 189,1 trln so'mgacha o'sib, aktivlardagi ulushi 14,2 foizdan 21,1 foizga yetgan. Ushbu ulushning 2023 yilda pasayishi likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti (LCR)ni 2022 yildagi 211,6 foizdan 164,8 foizga tushirgan, 2025 yilda esa u 207,5 foizga tiklangan. Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti (NSFR) 109,9 foizdan 119,9 foizga, lahzali likvidlilik koeffitsienti 67,4 foizdan 134,7 foizga oshgan. NSFR butun davrda minimal talabdan yuqori saqlangan. Natijada bank tizimining qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish va barqaror moliyalashtirish imkoniyatlari yaxshilangan.

Bank tizimi likvidliligining barqarorligi nafaqat yuqori likvidli aktivlar hajmiga, balki kredit va depozitlarning muddat tarkibiga ham bog'liq.

2-jadval

Bank tizimi aktivlari va passivlarining tarkibiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Talab qilib olinguncha depozitlar ulushi, foiz	46,9	44,3	46,5	36,4	34,0	30,9
Jamg'arma va muddatli depozitlar ulushi, foiz	53,1	55,7	53,5	63,6	66,0	69,1
Uzoq muddatli kreditlar ulushi, foiz	89,8	89,8	86,9	87,0	85,7	88,0
Kapitalning aktivlarga nisbati, foiz	15,9	15,9	14,3	14,9	14,9	14,6
Moliyalashtirish tafovuti, mlrd so'm	162	170	173	229 718,9	224 428,9	186
	227,9	195,7	311,4			744,0
Moliyalashtirish tafovutining aktivlarga nisbati, foiz	44,3	38,3	31,1	35,2	29,2	20,2

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.


2020-2025 yillarda talab qilib olinguncha depozitlar ulushi 46,9 foizdan 30,9 foizga pasayib, jamg'arma va muddatli depozitlar ulushi 53,1 foizdan 69,1 foizga oshgan. Bu passivlar barqarorligini kuchaytirib, likvidlilikni rejalashtirish va aktivlarni barqaror manbalar hisobidan moliyalashtirish imkonini yaxshilagan.

Biroq uzoq muddatli kreditlar ulushi 89,8 foizdan 88,0 foizgacha kamaygan. 2025 yilda ularning ulushi jamg'arma va muddatli depozitlar ulushidan 18,9 foiz bandga yuqori bo'lgan. Barcha muddatli depozitlar ham uzoq muddatli resurs emasligi sababli nomutanosiblik bundan kattaroq bo'lishi mumkin.

Kreditlar va depozitlar o'rtasidagi moliyalashtirish tafovuti 2020 yildagi 162,2 trln so'mdan 2023 yilda 229,7 trln so'mgacha oshib, 2025 yilda 186,7 trln so'mga qisqargan.

Uning aktivlarga nisbati 44,3 foizdan 20,2 foizga pasaygan. Bu nodepozit resurslarga qaramlik kamayganini ko'rsatsa-da, barqaror uzoq muddatli resurslarni kengaytirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Banklar guruhlari kesimida kreditlar va depozitlar mutanosibligi sezilarli farq qiladi.



1-rasm. Banklar guruhlari bo'yicha aktivlar va kredit-depozit nisbati

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

2020-2025 yillarda davlat ulushi mavjud banklarning tizim aktivlaridagi ulushi 84,9 foizdan 63,5 foizga pasayib, boshqa banklar ulushi 15,1 foizdan 36,5 foizga oshgan. Davlat ulushi mavjud banklar aktivlari 310,7 trln so'mdan 586,9 trln so'mga, boshqa banklarniki esa 55,4 trln so'mdan 337,8 trln so'mga yoki 6,1 barobar ko'paygan. Bu boshqa banklarning tizimdagi mavqei kuchayganini ko'rsatadi.

3-jadval

O'zmilliybankning aktivlari va moliyalashtirish tarkibi

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Aktivlar, mlrd so'm	79 861,1	89 919,4	119 918,1	127 502,9	135 090,0	144 745,5
Sof kreditlar, mlrd so'm	63 764,7	70 918,3	84 938,4	92 365,1	100 534,0	99 444,3
Depozitlar, mlrd so'm	17 194,4	22 082,8	38 156,7	32 920,1	36 839,3	50 447,4
Kredit-depozit nisbati, foiz	370,8	321,1	222,6	280,6	272,9	197,1
Muddatli depozitlar ulushi, foiz	39,5	46,3	30,7	55,6	60,6	62,5
Depozitlarning majburiyatlardagi ulushi, foiz	26,1	29,4	36,9	30,0	31,7	40,4
Qarz mablag'larining majburiyatlardagi ulushi, foiz	59,2	58,0	41,8	50,1	48,9	38,6

Manba: O'zmilliybankning 2020-2025 yillarga oid moliyaviy hisobotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Davlat ulushi mavjud banklarda kredit-depozit nisbati 296,5 foizdan 190,2 foizga pasaygan bo'lsa-da, nodepozit resurslarga qaramlik yuqoriligicha qolgan. Boshqa banklarda mazkur nisbat 100,6 foizdan 97,5 foizga tushib, kreditlar asosan depozitlar bilan qoplangan. 2023 yildagi 117,7 foizlik o'sish keyingi yillarda depozitlar ko'payishi hisobiga bartaraf etilgan. Demak, tarkibiy nomutanosiblik davlat ulushi mavjud banklarda yuqori

bo'lib, likvidlilik choralari resurs bazasi va biznes modeliga muvofiq tabaqlashtirish zarur.

O'zmilliybankda likvidlilikning tarkibiy holati sof kreditlar, depozitlar va kredit-depozit nisbati dinamikasi asosida baholandi.

2020-2025 yillarda O'zmilliybank aktivlari 79,9 trln so'mdan 144,7 trln so'mga, sof kreditlari 63,8 trln so'mdan 99,4 trln so'mga, depozitlari esa 17,2 trln so'mdan 50,4 trln so'mga oshgan. Depozitlarning tezroq o'sishi kredit-depozit nisbatini 370,8 foizdan 197,1 foizgacha pasaytirgan.

2023 yilda depozitlar 38,2 trln so'mdan 32,9 trln so'mga qisqarib, kreditlar 84,9 trln so'mdan 92,4 trln so'mga oshgan. Natijada kredit-depozit nisbati 222,6 foizdan 280,6 foizga ko'tarilib, depozitlar qisqarishining likvidlilik nomutanosibligiga ta'sirini ko'rsatgan. 2025 yilda kreditlar 1,1 foizga kamayib, depozitlar 36,9 foizga o'sgach, nisbat 197,1 foizga tushgan.

Muddatli depozitlar ulushi 39,5 foizdan 62,5 foizga, depozitlarning majburiyatlardagi ulushi 26,1 foizdan 40,4 foizga oshgan. Qarz mablag'lari ulushi esa 59,2 foizdan 38,6 foizga pasaygan. Bu depozit resurslari ahamiyati oshganini ko'rsatsa-da, nodepozit resurslar hali ham muhimligini anglatadi.

«Turonbank» ATBda ham depozitlarning kreditlarga nisbatan tezroq o'sishi va moliyalashtirish tarkibining o'zgarishi kuzatilgan.

4-jadval

«Turonbank» ATBning aktivlari va moliyalashtirish tarkibi

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Aktivlar, mlrd so'm	8 714,1	11 009,6	12 878,7	15 938,7	17 585,3	21 767,9
Sof kreditlar, mlrd so'm	6 669,1	8 046,3	9 294,0	11 764,7	12 406,0	14 199,7
Depozitlar, mlrd so'm	2 116,4	2 837,8	3 492,6	4 661,5	5 486,2	8 243,2
Kredit-depozit nisbati, foiz	315,1	283,5	266,1	252,4	226,1	172,3
Muddatli depozitlar ulushi, foiz	55,3	60,9	61,8	73,5	70,1	72,1
Qarz mablag'larining majburiyatlardagi ulushi, foiz	57,7	55,4	52,3	51,1	49,9	45,2
Mutlaq likvidlilik koeffitsienti, foiz	51,0	108,8	105,5	102,9	102,3	103,1

Manba: «Turonbank» ATBning 2020-2025 yillarga oid yillik hisobotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

2020-2025 yillarda «Turonbank» aktivlari 8,7 trln so'mdan 21,8 trln so'mga, sof kreditlari 6,7 trln so'mdan 14,2 trln so'mga, depozitlari esa 2,1 trln so'mdan 8,2 trln so'mga oshgan. Depozitlarning o'rtacha yillik o'sishi 31,3 foizni, kreditlarniki 16,3 foizni tashkil etib, kredit-depozit nisbatini 315,1 foizdan 172,3 foizga pasaytirgan. Biroq koeffitsientning 100 foizdan yuqoriligi nodepozit resurslar ahamiyati saqlanayotganini ko'rsatadi.

Muddatli depozitlar ulushi 55,3 foizdan 72,1 foizga, depozitlarning majburiyatlardagi ulushi 28,2 foizdan 41,9 foizga oshgan. Qarz mablag'lari ulushi 57,7 foizdan 45,2 foizga pasaygan.

Mutlaq likvidlilik koeffitsienti 2020 yildagi 51,0 foizdan 2021 yilda 108,8 foizga ko'tarilib, keyingi yillarda barqarorlashgan va 2025 yilda 103,1 foizni tashkil etgan. Biroq kapitalning aktivlarga nisbati 13,9 foizdan 9,6 foizga pasaygani aktivlar o'sishini kapital va barqaror resurslar bilan muvofiqlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari 2020-2025 yillarda O'zbekiston bank tizimi likvidliligida quyidagi o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatdi:

- yuqori likvidli aktivlar bank aktivlariga nisbatan tezroq o'sgan;

- likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti va sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti butun tadqiqot davrida minimal talabdan yuqori saqlangan;

- depozitlar o'sishi kreditlar o'sishidan yuqori bo'lgan;

- talab qilib olinguncha depozitlar ulushi pasayib, jamg'arma va muddatli depozitlar ulushi oshgan;

- kredit-depozit nisbati sezilarli pasaygan;

- davlat ulushi mavjud banklarda kredit-depozit nisbati boshqa banklarga nisbatan ancha yuqori saqlangan;

O'zmilliybank va «Turonbank»da depozit bazasi kengayib, qarz mablag'larining majburiyatlardagi ulushi pasaygan.

Shu bilan birga, kredit portfelida uzoq muddatli kreditlar ulushining 88 foiz atrofida saqlanishi, kredit-depozit nisbatining bank tizimida 144,8 foiz, O'zmilliybankda 197,1 foiz va «Turonbank»da 172,3 foizni tashkil etishi tarkibiy likvidlilik riski to'liq bartaraf etilmaganini ko'rsatadi.

Shu sababli banklar likvidlilikni ta'minlashda yuqori likvidli aktivlarni saqlash bilan cheklanmasdan, uzoq muddatli kreditlarni barqaror resurslar bilan qoplash, muddatli depozitlar bazasini kengaytirish, nodepozit qarz resurslarini muddati bo'yicha diversifikatsiya qilish hamda kredit-depozit nisbati uchun bankning biznes modeliga mos ichki limitlarni belgilashi maqsadga muvofiq.

Tijorat banklarining likvidliligi aktivlar va passivlar hajmining tengligi bilangina emas, balki ularning muddati, valyutasi, barqarorligi va pul oqimlari bo'yicha muvofiqligi bilan belgilanadi. Qisqa muddatga jalb qilingan mablag'larni uzoq muddatli kreditlarga joylashtirish yoki xorijiy valyutadagi kreditlarni mos valyutadagi barqaror resurslar bilan yetarli ta'minlamaslik bankning tarkibiy likvidlilik riskini oshiradi.

Shu sababli aktivlar va passivlar tarkibiy muvofiqligi quyidagi yo'nalishlarda baholandi:

- kreditlarning jami aktivlardagi ulushi;

- depozitlarning jami aktivlardagi ulushi;

- kreditlarning depozitlar bilan qoplanish darajasi;

- uzoq muddatli kreditlarning jamg'arma va muddatli depozitlar bilan qoplanishi;

- uzoq muddatli kreditlarning barqaror resurslar bilan qoplanishi;

- milliy va xorijiy valyutadagi kreditlar va depozitlar nisbati;

- kapitalning aktivlar va kreditlarni moliyalashtirishdagi ishtiroki.

2020-2025 yillarda kreditlarning jami aktivlardagi ulushi pasaygan, depozitlarning aktivlardagi ulushi esa oshgan.

5-jadval

O'zbekiston bank tizimi aktivlari va passivlarining tarkibiy muvofiqlik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Kreditlarning aktivlardagi ulushi, foiz	75,7	73,4	70,1	72,3	69,3	65,3
Depozitlarning aktivlardagi ulushi, foiz	31,3	35,1	38,9	37,1	40,1	45,1
Kreditlarning depozitlar bilan qoplanishi, foiz	41,4	47,9	55,6	51,3	57,9	69,1
Jamg'arma va muddatli depozitlarning uzoq muddatli kreditlarga nisbati, foiz	24,5	29,7	34,2	37,5	44,6	54,2
Uzoq muddatli kreditlarning barqaror resurslar bilan qoplanishi, foiz	48,0	53,9	57,7	61,1	69,7	79,7
Muddat tarkibi tafovuti, foiz band	36,7	34,1	33,3	23,4	19,7	18,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

2020-2025 yillarda kreditlarning aktivlardagi ulushi 75,7 foizdan 65,3 foizga pasaygan. Bu kreditlash qisqarganini emas, balki yuqori likvidli aktivlar, qimmatli qog'ozlar va banklararo mablag'lar tezroq o'sganini hamda aktivlar likvidligi yaxshilanganini ko'rsatadi.

Depozitlarning aktivlardagi ulushi 31,3 foizdan 45,1 foizga, kreditlarning depozitlar bilan qoplanishi esa 41,4 foizdan 69,1 foizga oshgan. Demak, ichki depozit resurslarining ahamiyati kuchaygan, biroq 2025 yilda kreditlarning 30,9 foizi hali ham kapital va boshqa nodepozit manbalar hisobiga moliyalashtirilgan.

Jamg'arma va muddatli depozitlarning uzoq muddatli kreditlarni qoplash darajasi 24,5 foizdan 54,2 foizga yoki 29,7 foiz bandga yaxshilangan. Shunga qaramasdan, uzoq muddatli kreditlarning 45,8 foizi mazkur depozitlar bilan qoplanmagan. Bu qism kapital, banklararo mablag'lar, xorijiy kredit liniyalari va boshqa qarz resurslari hisobiga moliyalashtirilib, muddat nomutanosibli saqlanayotganini ko'rsatadi.

Uzoq muddatli kreditlarning barqaror resurslar bilan qoplanishini baholashda jamg'arma depozitlari, muddatli depozitlar va bank kapitali birgalikda hisobga olindi:

$$SFC_t = ((SD_t + TD_t + K_t) / LTC_t) \times 100$$

Bu yerda:

SD_t – jamg'arma depozitlari;

TD_t – muddatli depozitlar;

K_t – bank kapitali;

LTC_t – uzoq muddatli kreditlar;

t – hisobot davri.

Mazkur koeffitsient 2020 yilda 48,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilda 79,7 foizga yetgan. Bu uzoq muddatli kreditlarni nisbatan barqaror resurslar bilan ta'minlash darajasi yaxshilanganini ko'rsatadi.

Biroq koeffitsientning 100 foizdan past bo'lishi uzoq muddatli kreditlar hajmi jamg'arma va muddatli depozitlar hamda kapital yig'indisidan yuqori ekanini anglatadi. 2025 yilda ham uzoq muddatli kreditlarning 20,3 foizi barqaror resurslar bilan qoplanmagan.

Bunda jamg'arma va muddatli depozitlarning barchasini to'liq uzoq muddatli resurs sifatida qabul qilish mumkin emas. Chunki ularning bir qismi bir yilgacha bo'lgan muddatga jalb qilingan bo'lishi mumkin. Shu sababli hisoblangan 79,7 foizlik koeffitsient uzoq muddatli kreditlarning barqaror resurslar bilan qoplanish darajasini nisbatan yuqori baholashi mumkin.

Muddat tarkibi tafovuti uzoq muddatli kreditlar ulushi bilan jamg'arma va muddatli depozitlar ulushi o'rtasidagi farq sifatida hisoblandi. U 2020-2025 yillarda 36,7 foiz banddan 18,9 foiz bandgacha qisqarib, muddatlar muvofiqligi yaxshilanganini ko'rsatdi. Biroq tafovutning ijobiy saqlanishi uzoq muddatli kreditlar barqaror depozitlardan yuqoriligini va nomutanosiblik to'liq bartaraf etilmaganini anglatadi.

Bank likvidililigiga valyuta tarkibi ham ta'sir qiladi. Xorijiy valyutadagi kreditlarni milliy valyuta resurslari bilan moliyalashtirish yoki ularning hajmini valyuta depozitlaridan oshirish moliyalashtirish va qayta moliyalashtirish riskini kuchaytiradi.

6-jadval

Bank tizimi kreditlari va depozitlarining valyuta bo'yicha muvofiqligi

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Milliy valyutadagi kreditlar ulushi, foiz	50,1	50,2	52,5	55,0	57,1	60,8
Milliy valyutadagi depozitlar ulushi, foiz	56,9	61,2	60,8	70,1	74,9	79,1
Milliy valyutada kredit-depozit nisbati, foiz	212,6	171,3	155,5	153,0	131,6	111,3
Xorijiy valyutadagi kreditlar ulushi, foiz	49,9	49,8	47,5	45,0	42,9	39,2
Xorijiy valyutadagi depozitlar ulushi, foiz	43,1	38,8	39,2	29,9	25,1	20,9
Xorijiy valyutada kredit-depozit nisbati, foiz	279,4	268,4	217,9	293,8	295,3	271,1
Xorijiy valyutada moliyalashtirish tafovuti, mlrd so'm	88 677,8	102 051,0	100 175,5	139 859,6	151 256,5	149 447,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

2020-2025 yillarda milliy valyutadagi kreditlar ulushi 50,1 foizdan 60,8 foizga oshgan, xorijiy valyutadagi kreditlar ulushi esa 49,9 foizdan 39,2 foizga pasaygan. Bu valyuta riski nuqtai nazaridan ijobiy o'zgarishdir. Ayni davrda milliy valyutadagi depozitlar ulushi 56,9 foizdan 79,1 foizga ko'tarilib, xorijiy valyutadagi depozitlar ulushi 43,1 foizdan 20,9 foizga kamaygan.

Milliy valyutadagi kredit-depozit nisbati 212,6 foizdan 111,3 foizga pasayib, kreditlarni depozitlar bilan qoplash darajasi yaxshilangan. Xorijiy valyutada mazkur nisbat 279,4 foizdan 271,1 foizga tushgan bo'lsa-da, yuqoriligicha qolgan va 2024 yilda 295,3 foizga yetgan. Bu tashqi moliyalashtirish manbalariga qaramlikni ko'rsatadi.

Xorijiy valyutadagi moliyalashtirish tafovuti 88,7 trln so'mdan 149,4 trln so'mga oshgan, milliy valyutadagi tafovut esa 73,6 trln so'mdan 37,3 trln so'mga qisqargan. Demak, asosiy tarkibiy nomutanosiblik xorijiy valyuta segmentida to'plangan.

Bu holat xorijiy valyutadagi tashqi resurslarning muddati, qiymati va qaytarish jadvalini xorijiy valyutadagi kreditlar pul oqimi bilan muvofiqlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Aks holda tashqi moliyalashtirish manbalarining qisqarishi yoki qimmatlashishi banklarning valyuta likvidililigiga ta'sir qilishi mumkin.

O'zmilliybank va «Turonbank» ATB misolida kreditlar, depozitlar, kapital va qarz mablag'lari o'rtasidagi tarkibiy nisbat baholandi.

7-jadval

Ayrim tijorat banklarida aktivlar va passivlarning tarkibiy muvofiqligi

Ko'rsatkichlar	O'zmilliybank, 2020	O'zmilliybank, 2025	Turonbank, 2020	Turonbank, 2025
Kreditlarning aktivlardagi ulushi, foiz	79,8	68,7	76,5	65,2
Depozitlarning aktivlardagi ulushi, foiz	21,5	34,9	24,3	37,9
Kreditlarning depozitlar bilan qoplanishi, foiz	27,0	50,7	31,7	58,1
Muddatli depozitlar va kapitalning kreditlarga nisbati, foiz	32,4	51,8	35,7	56,6
Depozitlarning majburiyatlardagi ulushi, foiz	26,1	40,4	28,2	41,9
Qarz mablag'larining majburiyatlardagi ulushi, foiz	59,2	38,6	57,7	45,2
Kapitalning aktivlarga nisbati, foiz	17,4	13,8	13,9	9,6

Manba: O'zmilliybank va «Turonbank» ATBning yillik moliyaviy hisobotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

O'zmilliybankda kreditlarning aktivlardagi ulushi 79,8 foizdan 68,7 foizga pasayib, depozitlar ulushi 21,5 foizdan 34,9 foizga, kreditlarning depozitlar bilan qoplanishi 27,0 foizdan 50,7 foizga oshgan. Muddatli depozitlar va kapitalning kreditlarga nisbati 32,4 foizdan 51,8 foizga ko'tarilgan. Majburiyatlarda depozitlar ulushi 26,1 foizdan 40,4 foizga oshgan, qarz mablag'lari ulushi esa 59,2 foizdan 38,6 foizga pasaygan. Bu ichki resurslar ahamiyati kuchayganini ko'rsatadi.

Xorijiy valyutadagi aktivlar ulushi 68,9 foizdan 59,6 foizga, majburiyatlar ulushi 83,0 foizdan 68,4 foizga kamaygan. 2025 yilda musbat valyuta tafovuti 917,6 mlrd so'mni

tashkil etgan bo'lsa-da, valyuta majburiyatlarining yuqoriligi tashqi moliyalashtirishga sezgirlikni saqlab qolgan.

«Turonbank»da kreditlarning aktivlardagi ulushi 76,5 foizdan 65,2 foizga pasayib, depozitlar ulushi 24,3 foizdan 37,9 foizga, kreditlarning depozitlar bilan qoplanishi 31,7 foizdan 58,1 foizga oshgan. Muddatli depozitlar va kapitalning kreditlarga nisbati 35,7 foizdan 56,6 foizga ko'tarilgan. Majburiyatlarda depozitlar ulushi 28,2 foizdan 41,9 foizga oshgan, qarz mablag'lari ulushi 57,7 foizdan 45,2 foizga pasaygan. Biroq kapitalning aktivlarga nisbati 13,9 foizdan 9,6 foizga tushishi aktivlar o'sishi kapital o'sishidan yuqori bo'lganini ko'rsatadi.

Amalga oshirilgan hisob-kitoblar O'zbekiston bank tizimida aktivlar va passivlar tarkibiy muvofiqligi yaxshilanib borayotganini ko'rsatadi. Depozitlar aktivlar va kreditlarga nisbatan tezroq o'sgan, talab qilib olinguncha depozitlar ulushi pasaygan, muddatli resurslar ulushi oshgan va milliy valyutadagi kredit-depozit nisbati 111,3 foizgacha kamaygan.

Biroq uchta asosiy tarkibiy nomutanosiblik saqlanib qolmoqda.

1. Uzoq muddatli kreditlarning barqaror resurslar bilan qoplanish koeffitsienti 79,7 foizni tashkil etgan. Demak, uzoq muddatli kreditlarning kamida 20,3 foizi jamg'arma va muddatli depozitlar hamda kapital bilan qoplanmagan.

2. Xorijiy valyutadagi kredit-depozit nisbati 271,1 foizni tashkil etgan. Xorijiy valyutadagi moliyalashtirish tafovuti 149,4 trln so'mga yetgan. Bu valyuta likvidliligining tashqi resurslarga bog'liqligini ko'rsatadi.

3. Davlat ulushi mavjud banklar va tahlil qilingan alohida banklarda kreditlarning depozitlar bilan qoplanish darajasi yaxshilangan bo'lsa-da, kredit portfeli hali ham katta hajmda nodepozit resurslar hisobiga moliyalashtirilmoqda.

Shundan kelib chiqib, aktivlar va passivlarni boshqarishda quyidagi yo'nalishlarga ustuvor ahamiyat berish lozim:

uzoq muddatli kreditlar o'sishini uzoq muddatli resurslar o'sishi bilan bog'lash;
har bir muddat oralig'i bo'yicha jamlanma va alohida GAP limitlarini belgilash;
xorijiy valyutadagi kreditlar va resurslar uchun alohida moliyalashtirish limitlarini joriy etish;

muddatli depozitlar, depozit sertifikatlari va bank obligatsiyalari orqali barqaror resurs bazasini kengaytirish;

kredit-depozit nisbati va tarkibiy qoplash koeffitsientini aktivlar va passivlarni boshqarish qo'mitasining doimiy nazorat ko'rsatkichlariga kiritish;

kapital o'sishini aktivlar va uzoq muddatli kreditlar o'sish sur'ati bilan muvofiqlashtirish.

Tijorat banklari likvidliligini faqat bitta koeffitsient asosida baholash bankning haqiqiy likvidlilik holatini to'liq ifodalamaydi. Bankda likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti (LCR) yuqori bo'lishi mumkin, biroq uzoq muddatli kreditlarning barqaror resurslar bilan qoplanish darajasi past bo'lsa, tarkibiy likvidlilik riski saqlanib qoladi.

Shuningdek, sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti (NSFR) belgilangan talabdan yuqori bo'lgan holatda ham kredit-depozit nisbati yoki xorijiy valyutadagi moliyalashtirish tafovuti yuqori bo'lishi mumkin. Shu sababli tadqiqotda bank

likvidliligini operatsion, tarkibiy va valyuta yo'nalishlarini birlashtirgan holda baholashga asoslangan likvidlilik barqarorligi matritsasi taklif etildi.

Matritsa uchta o'zaro bog'liq yo'nalishdan tashkil topadi:

operatsion likvidlilik holati;

tarkibiy moliyalashtirish barqarorligi;

xorijiy valyutadagi moliyalashtirish riski.

Operatsion likvidlilik holati likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti va yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi asosida baholanadi.

Tarkibiy moliyalashtirish barqarorligi sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti uzoq muddatli kreditlarning barqaror resurslar bilan qoplanish koeffitsienti va kredit-depozit nisbati asosida aniqlanadi.

Valyuta likvidliligi riski xorijiy valyutadagi kredit-depozit nisbati orqali baholanadi.

Har bir ko'rsatkich bo'yicha to'rtta daraja belgilandi:

A – yuqori barqarorlik;

B – barqaror holat;

C – likvidlilikka sezgir holat;

D – yuqori riskli holat.

8-jadval

Likvidlilik barqarorligi matritsasining baholash mezonlari

Ko'rsatkichlar	A daraja	B daraja	C daraja	D daraja
Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti (LCR), foiz	200 va yuqori	150–199,9	100–149,9	100 dan past
Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi, foiz	20 va yuqori	15–19,9	10–14,9	10 dan past
Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti (NSFR), foiz	115 va yuqori	110–114,9	100–109,9	100 dan past
Uzoq muddatli kreditlarning barqaror resurslar bilan qoplanishi, foiz	100 va yuqori	80–99,9	50–79,9	50 dan past
Kredit-depozit nisbati, foiz	100 va past	100,1–150	150,1–200	200 dan yuqori
Xorijiy valyutadagi kredit-depozit nisbati, foiz	100 va past	100,1–200	200,1–300	300 dan yuqori

Manba: Bazel III talablari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki me'yorlari va muallifning tahliliy yondashuvi asosida ishlab chiqilgan.

Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti va sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti uchun 100 foizlik chegara regulativ minimal talab hisoblanadi. Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi uchun 10 foizlik chegara Markaziy bank tomonidan belgilangan minimal talabga asoslangan.

Uzoq muddatli kreditlarning barqaror resurslar bilan qoplanishi, kredit-depozit nisbati va xorijiy valyutadagi kredit-depozit nisbati bo'yicha oraliq chegaralar regulativ normativ emas. Ular likvidlilik riskini tahliliy guruhlash va banklar holatini taqqoslash uchun taklif etilgan ichki baholash mezonlari hisoblanadi.

Operatsion likvidlilik darajasi likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti va yuqori likvidli aktivlar ulushi orasidagi eng past daraja bo'yicha belgilanadi:

$$OL_t = \min (G_{lr,t}; G_{hla,t})$$

Tarkibiy moliyalashtirish darajasi sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti, tarkibiy qoplash koeffitsienti va kredit-depozit nisbati bo'yicha eng zaif ko'rsatkich asosida aniqlanadi:

$$SF_t = \min (G_{ns}g'_{r,t}; G_s g'_{r,t}; G_{lD_{r,t}})$$

Bu yerda:

OL_t – operatsion likvidlilik darajasi;

SF_t – tarkibiy moliyalashtirish darajasi;

$G_{lr,t}$ – t davrda LCR ko'rsatkichining A, B, C yoki D darajasi;

$G_{hla,t}$ – t davrda yuqori likvidli aktivlar ulushining A, B, C yoki D darajasi;

$G_{ns}g'_{r,t}$ – t davrda NSFR ko'rsatkichining A, B, C yoki D darajasi;

$G_s g'_{r,t}$ – t davrda SFC ko'rsatkichining A, B, C yoki D darajasi;

$G_{lD_{r,t}}$ – t davrda LDR ko'rsatkichining A, B, C yoki D darajasi.

Eng zaif ko'rsatkich tamoyilining qo'llanilishi bir ko'rsatkichning yuqori qiymati boshqa yo'nalishdagi likvidlilik riskini yashirib qolishining oldini oladi.

Xulosa va takliflar

O'tkazilgan tahlil natijalari O'zbekiston bank tizimida qisqa muddatli likvidlilik zaxiralari yetarli darajada shakllanganini, biroq kredit qo'yilmalari va ularni moliyalashtirish manbalarining muddatlari hamda valyutalari o'rtasida muayyan tarkibiy nomutanosibliklar saqlanib qolayotganini ko'rsatdi. Xususan, 2025 yil yakunida bank tizimi bo'yicha likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti 207,5 foizni, sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti 119,9 foizni va yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi 21,1 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, kreditlarning depozitlarga nisbati (LDR) 144,8 foiz, uzoq muddatli kreditlarning barqaror moliyalashtirish manbalari bilan qoplanish koeffitsienti esa 79,7 foiz darajasida shakllangan.

Mazkur holat bank tizimi likvidliliğini takomillashtirishda faqat yuqori likvidli aktivlar hajmini ko'paytirishga emas, balki aktivlar va passivlarning muddati, valyutasi, qiymati va barqarorligi bo'yicha muvofiqligini ta'minlashga qaratilgan kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Shu asosda quyidagi yo'nalishlarni amalga oshirish taklif etiladi.

1. Likvidlilik barqarorligi matritsasini banklarning risk-menejment tizimiga joriy etish

Tijorat banklarida likvidlilik holatini baholash faqat alohida prudensial koeffitsientlarni hisoblash bilan cheklanmasligi lozim. Tadqiqotda taklif etilgan likvidlilik barqarorligi matritsasi operatsion likvidlilik, tarkibiy moliyalashtirish, valyutalar kesimidagi nomutanosiblik va kapital bilan ta'minlanganlikni yagona tizimda baholash imkonini beradi.

Bunda bankning umumiy pozitsiyasi eng zaif ko'rsatkich asosida belgilanishi zarur. Masalan, likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti yuqori bo'lsa-da, valyutalar kesimidagi

LDR yoki uzoq muddatli kreditlarning barqaror manbalar bilan qoplanishi qoniqarsiz bo'lsa, bank barqaror deb baholanmasligi kerak.

2. Kreditlarning depozitlarga nisbati bo'yicha tabaqalashtirilgan ichki limitlarni belgilash

2025 yilda kredit-depozit nisbati (LDR) bank tizimida 144,8 foizni, davlat ulushi mavjud banklarda 190,2 foizni, boshqa banklarda 97,5 foizni tashkil etgan. Bu davlat ulushi mavjud banklarda kreditlar depozit bazasiga nisbatan tezroq o'sganini ko'rsatadi.

LDR bo'yicha quyidagi ichki chegaralarni belgilash taklif etiladi:

100 foizgacha – maqbul daraja;

100,1-150 foiz – nazorat qilinadigan daraja;

150,1-200 foiz – tuzatish choralarini talab qiladigan daraja;

200 foizdan yuqori – likvidlilikni tiklash rejasini ishga tushiradigan yuqori riskli daraja.

Bank tizimida o'rta muddatli maqsadli LDRni 130 foizdan oshirmaslik lozim. Kreditlar hajmi o'zgarmaganda, ko'rsatkichni 144,8 foizdan 130 foizga tushirish uchun depozitlarni 47,4 trln so'mga oshirish talab etiladi.

Davlat ulushi mavjud banklarda dastlab LDRni 150 foizga tushirish uchun depozitlarni 57,0 trln so'mga ko'paytirish, keyin esa ko'rsatkichni 130 foizga yaqinlashtirish zarur. Limitlar banklarning biznes modeliga muvofiq tabaqalashtirilishi, depozitlar bilan qoplanmagan kredit o'sishi esa uzoq muddatli va diversifikatsiyalangan manbalar bilan ta'minlanishi lozim.

3. Uzoq muddatli aktivlarni barqaror moliyalashtirish manbalari bilan qoplash

2025 yilda uzoq muddatli kreditlar kredit portfelining 88,0 foizini tashkil etgan. Muddatli va jamg'arma depozitlari hamda kapitaldan iborat barqaror resurslar esa ularning 79,7 foizini qoplagan.

Uzoq muddatli kreditlarni barqaror resurslar bilan qoplash koeffitsienti uchun quyidagi maqsadli chegaralar taklif etiladi:

qisqa muddatda – kamida 80 foiz;

o'rta muddatda – kamida 90 foiz;

strategik davrda – kamida 100 foiz.

Uzoq muddatli kreditlar hajmi o'zgarmaganda, koeffitsientni 100 foizga yetkazish uchun qo'shimcha 108,0 trln so'mlik barqaror resurs talab etiladi. Ushbu ehtiyoj quyidagi manbalar orqali qoplanishi mumkin:

bir yildan ortiq muddatli depozitlar;

depozit sertifikatlari;

bank obligatsiyalari;

subordinatsiyalangan qarzlar;

xalqaro moliya institutlarining uzoq muddatli kredit liniyalari;

mahalliy kapital bozorida joylashtiriladigan qarz vositalari.

Yangi uzoq muddatli kreditlar tegishli yoki uzoqroq muddatli moliyalashtirish manbasi mavjud bo'lganda ajratilishi lozim. Bu talab bank kredit siyosati va aktivlar hamda passivlarni boshqarish qo'mitasi qarorlarida belgilanishi kerak.

4. Valyutalar kesimida likvidlilik nomutanosibligini qisqartirish

2025 yilda milliy valyutadagi kredit-depozit nisbati (LDR) 111,3 foizni, xorijiy valyutadagi LDR 271,1 foizni tashkil etgan. Xorijiy valyutadagi kreditlar va depozitlar tafovuti 149,4 trln so'm ekvivalentiga yetgan. Bu valyuta kreditlarining katta qismi tashqi qarzlar va boshqa jalb qilingan mablag'lar bilan moliyalashtirilayotganini ko'rsatadi.

Shu sababli LDR va likvidlilik tafovuti (GAP) har bir asosiy valyuta bo'yicha alohida hisoblanishi lozim. Xorijiy valyutadagi LDR uchun quyidagi maqsadli chegaralar taklif etiladi. Birinchi bosqichda – 200 foiz, o'rta muddatda – 150 foiz.

Valyuta kreditlarini moliyalashtirishda «bir xil valyuta va bir xil yoki uzoqroq muddat» tamoyili qo'llanilishi kerak. Ular mos valyutadagi depozitlar, obligatsiyalar yoki uzoq muddatli kredit liniyalari bilan ta'minlanishi lozim. Tashqi qarzlar konsentratsiyasiga kreditorlar, valyutalar va so'ndirish muddatlari bo'yicha ichki limitlar belgilanishi zarur.

5. Barqaror depozit bazasini kengaytirish va diversifikatsiyalash

2025 yilda jamg'arma va muddatli depozitlarning jami depozitlardagi ulushi 69,1 foizni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkichni qisqa muddatda kamida 70 foiz, o'rta muddatda esa 75 foizga yetkazish maqsadga muvofiq. Buning uchun tijorat banklari:

- aholi uchun uzoq muddatli jamg'arma mahsulotlarini kengaytirishi;
- foizlarni kapitallashtirish imkoniyati mavjud depozitlarni joriy etishi;
- maqsadli jamg'arma va pensiya depozitlarini rivojlantirishi;
- yuridik shaxslarning talab qilib olinguncha mablag'larini muddatli mahsulotlarga transformatsiya qilish mexanizmlarini ishlab chiqishi;
- depozit sertifikatlarini raqamli shaklda muomalaga chiqarishi;
- depozitlarning muddati va barqarorligiga qarab tabaqalashtirilgan foiz siyosatini yuritishi zarur.

Depozit bazasini kengaytirish bilan birga uning konsentratsiyasini ham nazorat qilish kerak. Banklarda eng yirik omonatchilar ulushi, o'zaro bog'liq depozitorlar guruhi va tez chiqib ketishi mumkin bo'lgan mablag'lar bo'yicha alohida limitlar belgilanishi lozim. Depozitlarning amaldagi saqlanish muddatini baholashda faqat shartnoma muddati emas, balki mijozlarning tarixiy xulq-atvoriga asoslangan modellardan ham foydalanish maqsadga muvofiq.

6. Likvidlilik zaxirasi va rentabellik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash

Yuqori likvidli aktivlarni ortiqcha saqlash likvidlilik riskini kamaytirsada, foizli daromadlar va aktivlar rentabelligini pasaytirishi mumkin. Shu bois likvidlilik zaxirasi bankning biznes-modeli va stress-test natijalari asosida maqbullashtirilishi lozim.

Quyidagi ichki indikativ chegaralar taklif etiladi:

- likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti (LCR) – 150-200 foiz;
- sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti (NSFR) – kamida 115 foiz;
- yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi – 15-20 foiz.

Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsientining (LCR) 200 foizdan yuqoriligi avtomatik ravishda ortiqcha likvidlilikni anglatmaydi. Bu holat depozitlar konsentratsiyasi, pul oqimlari, garov ta'minoti va stress-test natijalari bilan birgalikda baholanishi kerak.

Zarur likvidlilik buferi shakllantirilgandan keyingi vaqtincha bo'sh mablag'larni yuqori riskli uzoq muddatli kreditlarga emas, balki davlat qimmatli qog'ozlari, Markaziy

bank operatsiyalari va REPO bozorida tez pulga aylanadigan vositalarga joylashtirish maqsadga muvofiq.

7. Pul oqimlari GAP-tahlili va stress-testlarni takomillashtirish

Muddat nomutanosibligini erta aniqlash uchun har bir muddat oralig'i bo'yicha sof va jamlanma likvidlilik tafovuti (GAP)ga ichki limitlar belgilanishi lozim. Salbiy jamlanma tafovut limitdan oshganda aktivlar o'sishini cheklash, depozit stavkalarini qayta ko'rib chiqish yoki qo'shimcha mablag' jalb qilish zarur. Stress-testlarda quyidagi ssenariylar qo'llanilishi kerak:

- talab qilib olinguncha depozitlarning 10, 20 va 30 foizga qisqarishi;
- yirik omonatchilar mablag'larining chiqib ketishi;
- yuqori likvidliktivlarga 5, 10 va 15 foizlik diskont qo'llanilishi;
- tashqi qarzlarni qayta moliyalashtirish imkoniyati yo'qolishi;
- valyuta kursining keskin o'zgarishi;
- banklararo mablag' jalb qilish imkoniyati cheklanishi;
- kredit liniyalarining qisman yoki to'liq yopilishi.

Markaziy bankning FSAP chora-tadbirlar rejasida depozitorlar konsentratsiyasini makrostress-testlarda hisobga olish hamda likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti va sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti elementlarini Bazel III talablariga muvofiqlashtirish belgilangan. Bu stress-test va erta ogohlantirish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini kuchaytiradi.

8. Favqulodda moliyalashtirish va likvidlilikni tiklash rejasini ishlab chiqish

Har bir bank likvidlilik keskin yomonlashganda qo'llaniladigan favqulodda moliyalashtirish rejasiga ega bo'lishi kerak. Unda quyidagilar belgilanadi:

- rejani ishga tushiruvchi miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari;
- qaror qabul qiluvchi mas'ul shaxslar;
- moliyalashtirish manbalari;
- garovga qo'yiladigan aktivlar;
- aktivlarni sotish va REPOga jalb qilish tartibi;
- Markaziy bank va moliya institutlari bilan aloqa kanallari;
- mijozlar va jamoatchilik bilan kommunikatsiya siyosati.

Erta ogohlantirish chegaralari sifatida likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsientining 130 foizdan, sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsientining 110 foizdan pasayishi, LDRning 150 foizdan va xorijiy valyutadagi LDRning 200 foizdan oshishi qabul qilinishi mumkin. Chegaralar buzilganda aktivlar va passivlarni boshqarish qo'mitasi tuzatish rejasini tasdiqlashi lozim.

9. Likvidlilik qiymatini ichki transfert narxlash tizimida hisobga olish

Kredit va depozit qarorlarida likvidlilikning ichki qiymati aks ettirilishi kerak. Shu maqsadda ichki transfert narxlash tizimida resursning muddati, valyutasi, barqarorligi va likvidlilik riski uchun ustama belgilanishi lozim.

Uzoq muddatli yoki xorijiy valyutadagi kredit stavkasi quyidagi xarajatlarni qoplashi kerak:

- resursni jalb qilish qiymati;
- majburiy likvidlilik buferi;
- valyuta riski;

qayta moliyalashtirish riski;
muddat nomutanosibliqi qiymati.

Bu mexanizm bo'linmalarining depozit bazasi va likvidlilik imkoniyatlarini hisobga olmasdan kredit portfelini keskin oshirishini cheklaydi.

10. Davlat ulushi mavjud banklar uchun alohida tarkibiy choralarni belgilash

Davlat ulushi mavjud banklarda LDRning 190,2 foizga yetgani ular uchun umumiy bank tizimiga nisbatan qat'iyroq tarkibiy choralar zarurligini ko'rsatadi. Ushbu banklarda: kredit portfeli o'sish sur'atini depozitlar va kapital o'sishi bilan muvofiqlashtirish; davlat dasturlari doirasida ajratiladigan uzoq muddatli kreditlarni tegishli muddatdagi maqsadli resurslar bilan ta'minlash;

tashqi moliyalashtirish manbalarini kreditorlar va muddatlar bo'yicha diversifikatsiyalash;

milliy valyutada bank obligatsiyalarini chiqarish;

chakana va korporativ muddatli depozitlarning ulushini oshirish;

bozor tamoyillariga asoslanmagan kredit operatsiyalarining likvidlilikka ta'sirini alohida baholash zarur.

Xususan, O'zbekiston Milliy bankida xorijiy valyutadagi kreditlar va jalb qilingan mablag'lar konsentratsiyasini qisqartirish hamda milliy valyutadagi muddatli depozitlarni kengaytirish ustuvor vazifa bo'lishi kerak. Turonbankda esa aktivlar o'sishini kapital va barqaror resurslar o'sishi bilan muvofiqlashtirish, kapitalning aktivlarga nisbatini oshirish hamda jalb qilingan qarz mablag'lariga qaramlikni bosqichma-bosqich kamaytirish maqsadga muvofiq.

11. Raqamli monitoring va boshqaruv hisobotini rivojlantirish

Likvidlilikni samarali boshqarish uchun barcha muhim ko'rsatkichlarni real vaqtga yaqin rejimda kuzatish imkonini beruvchi avtomatlashtirilgan boshqaruv paneli joriy etilishi kerak. Unda quyidagilar aks ettirilishi lozim:

bank va valyutalar kesimidagi LDR;

likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti (LCR);

sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti (NSFR);

yuqori likvidli aktivlar hajmi;

muddatlar bo'yicha likvidlilik GAP-ko'rsatkichlari;

yirik depozitorlar konsentratsiyasi;

tashqi qarzlarni qaytarish taqvim;

garovga qo'yilmagan likvidli aktivlar;

stress-testlar natijalari;

likvidlilik barqarorligi matritsasidagi joriy pozitsiya.

Ko'rsatkichlar bankning kaznachilik va risk-menejment bo'linmalari tomonidan kunlik, aktivlar va passivlarni boshqarish qo'mitasi tomonidan haftalik, bank boshqaruvi va kuzatuv kengashi tomonidan esa kamida oylik asosda ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, O'zbekiston tijorat banklarida likvidlilikni ta'minlashni takomillashtirish yuqori likvidli aktivlar hajmini oddiy ko'paytirish bilan emas, balki kreditlar o'sishini barqaror moliyalashtirish manbalari bilan muvofiqlashtirish, valyutalar va muddatlar kesimidagi nomutanosiblikni cheklash, depozit bazasini diversifikatsiyalash

hamda likvidlilik qiymatini bankning barcha biznes qarorlarida hisobga olish orqali amalga oshirilishi lozim. Mazkur yondashuv banklarning qisqa muddatli to'lov qobiliyatini saqlash bilan birga, ularning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi va tashqi shoklarga chidamliligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Diamond D.W., Dybvig P.H. Bank Runs, Deposit Insurance, and Liquidity. *Journal of Political Economy*, 1983, 91(3), 401–419.
2. Berger A.N., Bouwman C.H.S. Bank Liquidity Creation. *The Review of Financial Studies*, 2009, 22(9), 3779–3837.
3. Cornett M.M., McNutt J.J., Strahan P.E., Tehranian H. Liquidity Risk Management and Credit Supply in the Financial Crisis. *Journal of Financial Economics*, 2011, 101(2), 297–312.
4. Vazquez F., Federico P. Bank Funding Structures and Risk: Evidence from the Global Financial Crisis. *Journal of Banking & Finance*, 2015, 61, 1–14.
5. Basel Committee on Banking Supervision. *Basel III: The Liquidity Coverage Ratio and Liquidity Risk Monitoring Tools*, 2013.
6. Basel Committee on Banking Supervision. *Basel III: The Net Stable Funding Ratio*, 2014.
7. Abdullaev A.Ya. Tijorat banklarining likvidlilik darajasini baholash mexanizmini takomillashtirish. «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar», 2018, №6.
8. Berdiyarov B.T. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidliliigi va to'lov qobiliyatini ta'minlash masalalari. Iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2020.
9. Shokirova M.M. Tijorat banklari likvidliliigini boshqarishni amaliyotdagi usullari va ularning o'ziga xos jihatlari. «Xalqaro moliya va hisob», 2023, №2.
10. Izbosarov B.B. O'zbekistonda tijorat banklari likvidliliigini tartibga solishning amaldagi holati tahlili. «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar», 2019, №4.
11. 2025-2028-yillarda banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan "Yo'l xaritasi".

Copyright: ©2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

